

## NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING IJTIMOIIY HUQUQLARI.

**Hasanova SHaxinabonu Alisher qizi**

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi talabasi; e-mail: [shaxinabonuhasanova@gmail.com](mailto:shaxinabonuhasanova@gmail.com)

**Ro'ziyeva Malika Ilyos qizi**

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi talabasi; e-mail: [malikaroziyeva7716@gmail.com](mailto:malikaroziyeva7716@gmail.com)

**Ilmiy rahbar:**

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali

**Abbosova Maftuna Subxonovna**

Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasida P.H.D o'qituvchisi  
e-mail: [maftuna08011993@gmail.com](mailto:maftuna08011993@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan shaxslar, ularning ijtimoiy huquqlari, va bu huquqlaridan qanday foydalana olishlari nogironlik turlari davlatimizda nogironlarga qaratilgan e'tibor va imkoniyatlar fikrlar haqida.

**Kalit so'zlar:** Nogironlik, nogironlik turlari, ijtimoiy huquqlar, BMT, Prezident qarorlari, Realibitatsiya.

**Annotation:** This article is about people with disabilities, their social rights, and how they can benefit from these rights, types of disabilities, attention and opportunities for disabled people in our country.

**Key words:** Disability, types of disability, social rights, UN, Presidential decisions, Rehabilitation.

**Аннотация:** Эта статья о людях с ограниченными возможностями, их социальных правах и о том, как они могут воспользоваться этими правами, видах инвалидности, внимании и возможностях людей с ограниченными возможностями в нашей стране.

**Ключевые слова:** Инвалидность, виды инвалидности, социальные права, ООН, решения Президента, Реабилитация.

## KIRISH

Ma'lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1992-yil 14-oktabrdagi rezolyutsiyasiga muvofiq, har yili 3-dekabr sanasini butun dunyoda Xalqaro nogironlar kuni sifatida nishonlab kelinmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ijtimoiy hayotning barcha sohalarida himoya qilish, ularning muammolariga keng jamoatchilik e'tiborini jalb etishdan ibora. Mehr-muruvvatli va bag'rikeng xalqimiz azal-azaldan yordamga muhtoj, imkoniyati cheklangan insonlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatishni

jamiyatda tinchlik, do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan eng muhim qadriyatlardan biri sifatida e‘zozlab keladi. Buning tasdig‘ini “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingani, mamlakatimiz. Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyaga qo‘shilgani, sohada mustahkam qonuniy baza yaratilgani misolida ko‘rish mumkin. Mazkur risolada nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy huquqlari, ularning ta‘lim olishi, munosib mehnat faoliyati, ta‘lim jarayonlari, pensiya huquqlariga bag‘ishlanadi.

### Asosiy qism

Nogironlik, invalidlik — kasallik, shikastlanish, mayib-majruhlik, baxtsiz hodisalar tufayli butunlay yoki ma‘lum muddat mehnat qobiliyatini yo‘qotish. Jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi sababli ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj shaxs nogiron hisoblanadi. O‘zbekistonda Nogironlik Tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasi (TMEK) tomonidan belgilanadi. Nogironlik mehnat qobiliyatini yo‘qotish darajasiga qarab 3 guruhga bo‘linib, vaqtincha (6—12 oy) yoki muddatsiz qilib tayinlanadi. 1-guruh Nogironligiga mehnat qobiliyatini butunlay yo‘qotgan va boshqaning doimiy parvarishi, yordami, nazoratiga muhtoj bo‘lgan shaxslar; 2-guruh Nogironiga mehnat qobiliyatini butunlay yo‘qotgan, lekin boshqalarning doimiy parvarishiga muhtoj bo‘lmagan, shuningdek, mehnat turidan qat‘i nazar, unda uzoq muddat ishlay olmaydigan shaxslar; 3-guruh Nogironligiga mehnat qobiliyati sezilarli darajada pasaygan shaxslar kiradi. Nogironlar davlat nafaqasi bilan ta‘minlanadi, zarur bo‘lganda davolanadi, ularga protezlar beriladi, ishga, maxsus maktablarga joylashtirish uchun sharoit yaratiladi. Nogironlarni tibbiy, ijtimoiy va kasbiy rehabilitatsiya qilish orqali faol hayotga, mehnatga jalb qilish dolzarb masala hisoblanadi<sup>1</sup>.

### O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI:

NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA DOIR QO‘SHIMCHA CHORATADBIRLAR TO‘G‘RISIDA:

Inson huquqlari, jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarining kafolatlarini mustahkamlash, inklyuziv rivojlanish, aholining barcha qatlamlari teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishlarini ta‘minlashning samarali mexanizmlarini joriy etish, nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyat hayotining barcha sohalarida ishtirok etishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

1. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Adliya vazirligi, Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz, O‘zbekiston nogironlar jamiyati, O‘zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi, Advokatlar palatasi hamda jamoatchilikning quyidagi takliflari ma‘qullansin:

1. <sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasida imtiyozli pensiya ta‘minoti to‘g‘risida [normativ hujjatlar to‘plami], T., 1994;

nogironligi bo‘lgan muhtoj shaxslarni zamonaviy protez-ortopediya moslamalari bilan ta’minlash hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish muassasalari uskunalari modernizatsiya qilish;

I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar, nogironligi bo‘lgan bolalar hamda ularga g‘amxo‘rlik qiluvchi fuqarolarga davlat idoralari va tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan davlat xizmatlaridan navbatsiz foydalanish bo‘yicha imtiyozlar berish;

nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash va ularga yuridik yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish.

Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq 2023-yil 1-maydan boshlab tibbiyot muassasalarida davolanayotgan nogironligi bo‘lgan bolaga g‘amxo‘rlik qilish uchun shu muassasada uning otasi yoki onasiga (ularning o‘rnini bosuvchi shaxsga) yoxud oilaning bolani bevosita parvarishlayotgan boshqa a’zosiga nogironligi bo‘lgan bolaning yonida birga bo‘lish uchun sharoit yaratiladi, jumladan:

statsionar tibbiyot muassasalarida nogironligi bo‘lgan bolani parvarishlayotgan shaxsga mazkur davr uchun mehnatga layoqatsizlik varaqasi beriladi;

bolalikdan nogironligi bo‘lgan shaxslarga g‘amxo‘rlik qiluvchi shaxslar (otasi va boshqalar) uchun davolash davrida davlat statsionar tibbiyot muassasalarida bepul ovqatlanish yo‘lga qo‘yiladi.<sup>2</sup>

**Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun quidagi xizmatlar va imtiyozlar joriy qilingan:**

**Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun tibbiy yordam**

-Ambulatoriyada davolanishda dori vositalari bilan imtiyozli ta’minlanish

-Ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam olish tartibi

-Tuman va viloyat darajasidagi imtiyozlar

-Ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam bo‘yicha imtiyozlar

-Tibbiyot muassasalarida ovqatlanish uchun haq to‘lashdan ozod etilgan shaxslar

-Dori vositalari bilan ta’minlash bo‘yicha imtiyozlar

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim olishi<sup>3</sup>

**Nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim olishi**

-Nogironligi bo‘lgan yoshlarga o‘qish, yashash va transport xarajatlarini qoplash hamda asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilish uchun subsidiya ajratish

-Bolani davlat maktabgacha ta’lim muassasasiga (bog‘cha, MTM) joylashtirish

-Bolani ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim muassasasiga joylashtirish

-Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berish tartibi

-Sanatoriy turidagi maktab-internatlar

<sup>2</sup> [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

<sup>3</sup> ↑ O‘zbekiston Respublikasining Davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risidagi qonunga sharhlar, T., 1996.



-Professional va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish bo'yicha to'lov-kontrakt summasining bir qismini to'lab berish tartibi

### **Nogironligi bo'lgan shaxslarga soliq imtiyozlari**

-Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun soliq imtiyozlari

-Nogiron farzandi bor ota yoki onaga soliq imtiyozlari

-Qat'iy belgilangan miqdordagi soliq stavkalari

Ishga joylashtirish bo'yicha davlat kafolatlari

### **Nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilishdagi kafolatlar**

-Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat huquqlari

-I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlar uchun ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligi

-I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlar uchun yillik mehnat ta'tili

-Nogironligi bo'lgan shaxslarning faoliyat yuritishi uchun ish o'rinlari va kasblarni moslashtirish bo'yicha tavsiyalar

-Nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiya berish tartibi

### **Nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan jinoiy jazolarni qo'llashdagi imtiyozlar**

-Nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan jinoiy jazolarni qo'llashdagi cheklovlar.

-Majburiy jamoat ishlari.<sup>4</sup>

Nogironligi bo'lgan shaxslarga e'tibor yildan-yilga oshib bormoqda bosh qomusimiz bo'lmish konstitutsiyamizning bir necha moddalarda ham u o'z tasdig'ini topgan masalan bunga misol qilib 39-moddasini olsak

Davlat ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand va kam ta'minlangan, uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolarni qonunda belgilangan tartibda uy-joy bilan ta'minlaydi.<sup>5</sup>

## **NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING PENSIYA HUQUQI**

### **Nogironlik pensiyalari qanday shartlarda tayinlanadi?**

Nogironlik pensiyalari qonunchilikda belgilangan tartibda I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar deb topilgan shaxslarga, shuningdek Chernobil AESdagi avariya tufayli mayib bo'lish yoki kasallik oqibatida III guruh nogironligi bo'lgan shaxslar deb topilgan shaxslarga tayinlanadi. Nogironlik pensiyasini tayinlash uchun

<sup>4</sup> ↑ O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 39-moddasi 2022yil

ish staji talab qilinadimi? Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat'i nazar tayinlanadi.<sup>6</sup>

### **Xulosa:**

Xulosa qilib shuni aytishimiz lozimki O'zbekiston Respublikasida har bir fuqorolarga qaratilgan e'tibor yuqori darajada ularning dini, irqi, millati, ijtimoiy hayotidan qat'iy nazar ularning huquq va erkinliklari kafolatlangan. Bunday e'tibordan nogironligi bo'lgan shaxslar ham chetda qolmagan ular ham sport, axborot texnologiyalari, robo texnologiyalar, ta'lim va boshqa sohalarda ham o'z o'rniga ega bo'lib hisoblanadi va ularning muvofaqiyatlari ham munosib taqdirlanadi

Ularni uy joy bilan ta'minlash ham davlat tasavvurida nazorat qilinadi. Sog'lig'iga bo'lgan e'tibor esa alohida etibordadir ularga kerak bo'ladigan dori-darmon vositalari, nogironlik aravachalari, eshitish moslamalari ham davlat tomonidan taqdim e'tiladi.

Yangilangan O'zbekistonimizda hattoki nogironligi bor shaxslarga nisbatan nogironlik so'zi yoki ularni kamsitadigan so'zlar aytilsa ular jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 39-moddasi 2022yil
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2020-y., 03/20/653/1592-son)
3. O'zbekiston Respublikasining Davlat pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonunga sharhlar, T., 1996.
4. O'zbekiston Respublikasida imtiyozli pensiya ta'minoti to'g'risida [normativ hujjatlar to'plami], T., 1994;
5. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2020-y., 03/20/653/1592-son)
6. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2020-y., 03/20/653/1592-son)